



MEHMONDORCHILIK ODOBI



Savollarga javob bering

1. Mehmonga borishni yoqtirasizmi? Mehmon taklif qilishni-chi?
2. Mehmonlar kelishiga qanday tayyorgarlik ko'rasiz?



O'qituvchi yordamida o'rganing

O'zbeklar – mehmondo'st xalq. Ostonadan kirib kelgan barcha insonga hurmat ko'rsatib, uni ochiq chehra bilan kutib olish va mehmon qilish xalqimizning odatlaridan.



Yozma topshiriq

Mamlakatimizda nishonlanadigan bayramlarni toping.

Y	N	S	A	K	K	I	Z	I	N	Ch	I	M	A	R
N	A	Y	M	V	A	Q	I	G	U	N	Y	P	N	T
G	V	Z	U	S	T	G	L	S	K	I	Sh	K	U	U
I	R	O'	D	X	I	R	L	I	K	R	A	L	N	I
Y	I	L	G	O	T	A	V	A	Q	A	D	R	S	A



O'qituvchi yordamida o'rganing

Sizni mehmonga taklif qilishdi. Quruq qo'l bilan borish odobdan emas. Hurmat yuzasidan biron sovg'a olib borish mezbonlarni xursand qiladi. Sovg'ani to'g'ri tanlash uchun mezbonlarga nima yoqishini bilish kerak.



Savollarga javob bering

1. Sovg'ani qanday tanlash kerak?
2. Sovg'a sizga yoqmasa, mehmonni xafa qilmaslik uchun qanday yo'l tutasiz?



Yodda tuting

Yaqinlaringizni o'zingiz tayyorlagan sovg'a bilan xursand qiling. Buning uchun siz:

- qog'ozdan tabriknoma, taklifnoma, gilamcha;
- bo'sh qutilardan chiroyli sandiqchalar yasashingiz;
- matodan kashtali ro'molcha, savatcha, igna tutgich, ko'zoynak uchun g'ilof tikishingiz mumkin.

Sovg'ani chiroyli qilib bezatish kerak.



Ijodiy topshiriq

Tug'ilgan kuningiz uchun taklifnoma rasmini chizing.



Yodda tuting

- Taklif qilingan joyga boring.
- Kech qolish odobdan emas.
- Dasturxon odobiga amal qiling.
- Mehmonda uzoq o'tirib, mezbonlarni zeriktirmaslik kerak.
- Ketayotganda mezbonlarga minnatdorlik bildirish lozim.



Savollarga javob bering

1. Siz kimlarning uyida mehmonda bo'lgansiz?
2. Mehmonga borganingizda biror qiziqarli voqea bo'lganmi?
3. Mehmonga borganda nimalardan xursand bo'lgansiz?





Xalq o'g'itlari

Odobni odobsizdan o'rgandim

Luqmoni hakimdan so'radilar:

- Odobni kimdan o'rganding?
- Odobsizdan, – javob qildi u.
- Iye, qanaqasiga? – hayron bo'ldilar.
- Odobsizning qaysi ishi ko'zimga yomon ko'rinsa, o'sha ishlarni qilmadim.



Guruhlarda ishlash

Mehmonda o'zini tutish qoidalarini belgilang. To'g'ri ✓ Noto'g'ri ✗

Eshikni qattiq
taqillatish

☐

Taklif qilinmagan
bo'lsa-da, borish

☐

Mezbon uchun shirinliklar
olib borish

☐

Dasturxon atrofida tartib
saqlab o'tirish

☐

Uy egalarining ruxsatisiz
ularning narsalariga tegish

☐

Uy egalariga
qo'pollik qilish

☐

Shovqin solish

☐

Kech qolmasdan o'z vaqtida
borish

☐

Mehmonda telefon o'ynab
o'tirish

☐

Uy egalari bilan
xayrlashmasdan ketish

☐

Uy vazifasi

Biror do'stingiz yoki yaqiningiz uchun o'z qo'lingiz bilan sovg'a tayyorlang.